

KITOB VA KITOBXONLIKNING INSONLAR HAYOTIDAGI O`RNI VA AHAMIYATI

Zakirova Maqsuda Atayevna

UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Ro`ziboyeva Feruza Ortiqboy qizi

UrDU AL Xorijiy tillar (ingliz filologiyasi) yo`nalishi o`quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola kitobning paydo bo'lish tarixi, kitob o'qish va uning foydalari, hamda uning inson ongi shakllanishida tutgan o'rni haqida.

Kalit so'zlar: kitob, kutubxon, ma'lumot, mutolaa, tarix, bilim, olim, farzand, ong.

*Kitob seni hali sen ko'rmagan dunyoga
olib boradi, sen eshitmagan so'zlarni aytadi.*

Gertsen

Kitob axborot, g'oya va bilimni saqlash, tarqatish hamda turli xil qarashlarni shakllantirish vositasidir. Kitoblar inson sivilizatsiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, asrlar davomida ular millatlararo ma'lumot almashinishiga xizmat qilgan. Ilgari dunyo va globallashuv haqida kengroq bilimga ega bo'lish maqsadida kitob, gazeta yoki jurnal o'qish lozim bo'lsa, hozirgi kunga kelib ma'lumot qabul qilishning turli xil vositalari mavjud. Shunga qaramasdan, kitoblar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, ularning soni va inson hayotidagi o'rni tobora oshib bormoqda.

Kitoblar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, olimlar kitobning paydo bo'lishini bevosita qog'ozning paydo bo'lishi bilan bog'laydilar. Ammo, ilk kitob namunalarini ossuriyaliklar, bobilliklar va boshqa qadimiy xalqlar yaratgan bo'lib, ular sopol taxtachalar shaklida edi. Qadimgi rivojlangan sivilizatsiyalardan biri bo'lgan Xitoyda dastlab kitoblar bombuk plastinkalari, keyinchalik shoyiga yozilgan. Eramizning birinchi asriga kelibgina, ma'lumotlar qog'ozga yozila boshladi. Misrlilar esa, iyerogliflarni odatda toshlarga bitishgan. Shu bilan birga, Osiyo xalqlarining muqaddas kitobi sanalmish "Avesto" ham 12000 qoramol terisidan ishlangan paragmentga yozilgan.

Biroq, dastlab kitob yaratish mashaqqatli jarayon bo'lib, ular qo'lda yozilganligi sababli, narxi juda ham baland turgan. O'rta asrgacha kitoblar zodagonlarga xos buyum hisoblanib, o'z davrining eng nufuzli insonlarigina uni bir biriga sovg'a qila olardi. XV asrga kelib, nemis ixtirochisi Iogann Gutenberg (1400 – 1468) kitob bosish

dastgohini o'ylab topgandan so'ng, o'qishga qobiliyati va xohishi bo'lganlar unga erishish imkoniga ega bo'ldilar.

Ilk davrlarda yaratilgan kitoblar, asosan, ma'lumotnomalar bo'lib, ular ko'pincha tibbiyot, astronomiya, tarix va boshqa diniy muqaddas kitoblar sanaladi. Keyinchalik, XI asrda yapon ayoli Murasaki Shikibu tarixdagi ilk roman deya tan olingan "Genji afsonasi" nomli, 54 bo'limdan iborat asar yaratadi. Shundan buyon, yozma adabiyot millatning o'zligini va tarixini o'zida aks ettiruvchi ko'plab afsona va rivoyatlarni yo'q bo'lib yoki umuman o'zgarib ketishdan saqlab kelmoqda.

Kitoblar haqida gap ketar ekan, bevosita xayolimizga kutubxonalar keladi. Ammo shuni tushinish kerakki, kutubxonalarning vujudga kelishi kitobning yaralishi bilan bog'liq emas. Kutubxonalar ko'p miqdordagi ma'lumotni bir joyda jamlash orqali o'rganish jarayonini tezlatish va osonlashtirish ehtiyoji asosida paydo bo'ldi. Manbaalarga ¹ asoslanadigan bo'lsak, ilk kutubxonalar bundan taxminan 5000 yil muqaddam Osiyoning janubi-g'arbiy hududlarida vujudga kelgan. Arxeologlar hozirgi Suriya hududidan eng qadimiy kutubxonalardan biri bo'lgan Ebiani² topishgan. Ammo uzoq tarixda kutubxonalar kitoblar kabi noyob hisoblanib, o'z davrining eng boy va katta kutubxonalari hukmdorlarga tegishli bo'lgan.

Kitobdan yaxshi do'st yo'qdir jahonda,

G'amxoring bo'lgay- u g'amli zamonda. ³

Biz kitob o'qish foydali ekanligi haqida ko'p eshitganmiz va qanday turdagi bo'lmasin kitob mutolaa qilganmiz. Xo'sh, aslida odamzod kitoblardan nima oladi? Kitoblar faqat rohatlanish hissi va bilim beradimi, yoki boshqa foydalari ham bormi? Ilmiy tadqiqotlar bunga "Ha!" deya javob beradi. AQSH ning Yale Universitetida olib borilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, o'n ikki yil davomida mutolaa bilan shug'illangan odamlarda xastalikka chalinish holati shug'illanmaydiganlarga qaraganda kamroq bo'lishi hamda ularning umr davomiyligi 2 yilga uzayishi mumkinligi kuzatilgan.

"Tasavvurdan olingan yupanch yolg'on yupanch emas." – deb yozgan edi britaniyalik faylasuf Rojer Skruton. Har qanday inson depressiya holatida o'zini yolg'iz va yomon his qilishi tabiiy. Aynan shunday paytlarda siz xayoliy obrazning hayotiga sho'ng'ish orqali tashvishlardan bir muncha chalg'ishingiz aniq. Ijtimoiy so'rov natijalari ko'ra, ko'p kitob o'quvchilar kam o'qiydiganlarga nisbatan o'zlarini ancha baxtli va hayotdan mamnun his qilishlarini aytganlar.

Mashhur yozuvchi Jorj R.R. Martin aytganidek: " Kitob o'quvchi inson o'lishidan oldin minglab hayotlarda yashaydi, hech qachon o'qimaydigan odam esa bitta hayotda". O'rganishlar natijasiga ko'ra, ko'p yillik badiiy adabiyot ixlosmandlari

¹ Wikipediya (library history)

² Miloddan avvalgi 2500 yillar

³ Abdurahmon Jomiy

boshqalarning tuyg'ularini tez tushinish va qabul qilish qobiliyatiga ega va buni olimlar "ong teoremasi" deb atashadi.

Mutaxassislar farzand tarbiyalashda va ongini o'stirishda kitobning o'rni beqiyos ekanini ko'p bor ta'kidlaydilar va bolalarga kitob o'qib berishni iloji boricha erta yoshda boshlashni maslahat beradilar. Bu jarayon nafaqat bola ongini va bilimini o'stirishi, balki farzand va ota-ona o'rtasida mehr-muhabbat tuyg'ularini kuchaytirib, uning kelajakda kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishi aniqlangan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, kichik yoshdanoq kitob o'qigan bolalar maktabda yaxshi natijalar ko'rsatibgina qolmay, murakkab masalalarni va muammolarni o'z tengdoshlariga qaraganda tezroq tushinib yetish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Psixologiya sohasidagi tajribalar esa, bolalikdan mutolaa qiluvchilar katta hayotga qadam qo'yganda ruhan kuchli, vazmin va mulohazali inson bo'lishini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, kitob biz bilgan ko'rinishga kelguncha uzoq yo'l bosgan va ko'p asrlardan buyon u insonlarga kamolat sari yo'l ko'rsatuvchi mayoq vazifasini o'taydi. Biz ko'pchilik savollarimizga kitoblar orqali javob topamiz, ular orqali tasavvur olamimizni yorqin bo'yoqlarga bo'yaymiz va shu olam uzra parvoz etish imkoniga ega bo'lamiz. Yozuvchi Adelis M. Kullens aytganidek: "Haqiqat balkim bizga istalgan hayotni bermas, ammo siz kitob varaqlari orasidan istagan narsangizni topishingiz mumkin".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Texnika va ilmiy kashfiyotlar. /-T.:” O'zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2014. (“Mening birinchi ensklopediyam” turkumidan).
2. Ismolilova N., Habibjonov I. Books and libraries – mirror of the human spirit. / ‘Oriental Art and Culture’ Scientific-methodical journal.- Issue 6/2021
3. Rebecca Joy Stanborough. “ Benefits of reading books: How it can positively affect your life”. 2019.<http://healthline.com>
4. Zofia Zosacka. “ Teenagers and books: From daily reading to avoidance”. EDUKACJA 2014.6. <http://academia.com>
5. Andy Mccoy. “The importance of reading books”. 01/2017. <http://studymoose.com>
6. Brainly user/” answer to a question ‘What are the benefits of reading books?’”. 10/2020. <http://brainly.com> .
7. “ Kitoblar” <http://uz.m.wikipedia.org>
8. Adelise M. Cullens. “Dead bunnies make all eight of me cry”. 2016. <http://www.goodreads.com>